



QIPCHOQ LAHJASIDA KELISHIK VA
GRAMMATIK SON KATEGORIYALARINING
VARIANTDORLIGI

Abruyeva Sarvinoz

Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

3-bosqich talabasi

ARTICLE INFO:

Received:07.09.2026

Revised: 08.09.2026

Accepted:09.09.2026

ABSTRACT

Qipchoq lahjasi o'zining turli xil xususiyatlariga egaligi bilan boshqa lahjalardan farqlanishi juda keng. Ushbu maqolada uning ba'zi grammatik kategoriyalarining xususiyatlari va turli variantlarga egaligi tahlil qilingan..

KEY WORDS:

*Qipchoq, lahja, kimak
(yimak) , grammatik
kategoriya,
variantdorlik,
singarmonizm..*

Qipchoq qabilalari ham uzoq o'tmishda Oltoy o'lkasida yashaganlar. VII-VIII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan. XIII asr o'rtalarida ular kimak // imak (yimak)lar davlati tarkibida qoladilar. XI asrda bu davlat parchalanib ketgach, qipchoqlar siyosiy jihatdan faollashadilar. VII-VIII asrlarda qipchoqlar Irtish daryosi bo'yida yashaganlar, IX-XI asrlarda esa Volga bo'ylariga siljib borgan. Qipchoqlarning avlodlari hozirgi Mongoliya, Oltoy, O'rta Osiyo, Volga bo'yi territoriyalarida istiqomat qiladilar (1, 93-b).

Lahja arabcha so'z bo'lib, u ravish, tarz, yo'sin, sheva ma'nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik to'ldasini anglatadi (1, 13-b).

Qipchoq lahjasi 3 yirik lahjadan biri bo'lib, O'zbek tilining rivojlanishida va boyib borishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbek tilining grammatik kategoriyalari o'zbek adabiy ntili va shevalari uchun shaklan bir xil bo'lib, uni tashkil etadigan so'z shakllari, to'g'rirog'i, affikslarining rang-barangligi (variantlari) bilan adabiy tildan farqlanadi. Albatta, shevalarning bu xususiyati uning boyligidan darak beradi.



Grammatik kategoriyalar soʻz shakllarining birlasha olish qobiliyati nuqtai nazardan tashkil topadi, yaʼni soʻz shakllarining ayni bir xil grammatik vazifa bajarishi jihatidan birlashishi koʻzda tutiladi (1, 48-b). Kelishik kategoriyasi otning yoki otlashgan soʻzning boshqa gap boʻlaklari bilan boʻlgan grammatik bogʻlanishini koʻrsatib keladi, ularning gapdagi vazifasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat oʻzbek adabiy tili uchun ham, oʻzbek xalq shevalari uchun ham umumiydir. Oʻzbek adabiy tilida 6 ta kelishik, 5 ta grammatik koʻrsatkich mavjud. Shevalarda esa bu raqam 4 tagacha kamayishi mumkin. Faqat qipchoq hamda shimoliy oʻzbek shevalaridagina 6 ta kelishik shakli toʻliq saqlanadi (2, 148-b). Biroq baʼzi “ ž “ lovchi shevalarda 5 tagacha shakllari qoʻllanadi, chunki qaratqich va tushum kelishigi affikslari bir xil variantlarda qoʻllanishi mumkin. Jumladan,

a) ātimdi enām qoygān .

b) üydi tāmī žāvildi

Yuqorida keltirilgan misolda “ di” affiksi ham tushum kelishi, ham qaratqich kelishigi vazifasini bajargan. Bundan tashqari , uning -ti, -ni kabi variantlarda ham qoʻllanilishini koʻrishimiz mumkin. Masalan,

a) kitāpti āpke (-ni)

b) ishti qī (-ni)

c) kitāpti varagʻī (-ni)

d) ātti dūmi (-ni)

e) ženīni šimār (-ni)

f) išni kōzi (-ni)

Joʻnalish kelishigi belgisiz qoʻllanishi bilan xarakterlidir. Misol, Armiya ketkan. Shuningdek, uning -gʻa , -a, -ka, -qa, kabi variantlari ham mavjud. Buni quyidagi misollarda koʻramiz: molgʻa qara, ishka bor, tovuqqa qara, qoʻlinga o kabi. Oʻrin -payt kelishigi - da ning ham bir qancha variantlari mavjud. Xususan, -ta, -tä, -na, -nä, - dä.

Masalan: a) mehnättä pišgān.

b) qolīmna kōtārdim.

Chiqish kelishigi qattiq oʻzak negizlarda unli va jarangli undoshdan soʻng - dan , - nan, jarangsiz undoshdan soʻng esa - tan shaklida qoʻllanadi (3, 139-b). Uning -tān, -dān, - tātān, -nān kabi variantlari ham qoʻllaniladi. Misol, mehnättān , qolimnan, ālimnān kabi .

Grammatik son kategoriyasi. U birlik va koʻplik (jamlik) shakllaridan tashkil topadi. Maʼlumki, birlik son koʻplik songa zid qoʻyilishi asosida belgilanadi, lekin feʼl shakllarida birlik va koʻplik oʻz koʻrsatkichlariga ega boʻladi. Koʻplik maʼnosini ifodalashda shevalarda -lār, -lar, -nār, -nar, -nä, -ār, -ä, - lä, -la, -dār, -dar, -tār, -tar kabi qoʻshimchalar qoʻllanadi. Oʻzbek shevalari uchun -lār arxivariant hisoblanadi va u barcha oʻzbek shevalari uchun umumiydir (1, 48-b).

Qipchoq lahjasida koʻplik affiksining quyidagi variantlari amalda bor: -nār, -nar, -dār, -dar, -tār, -tar affikslari qipchoq shevalariga xosdir:



- a) uzumlar ~ üzümñär, mehmonlar ~ mehmannar
- b) jigitlar ~ žigittär // žigillär, ojinlar ~ ojundar.

Qipchoq lahjasi shevalarida singarmonizm qonuni

to'liq amal qiladi. Singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalarida unlilar old qator va orqa qator mavqelarga (pozitsiyalarga) ega bo'ladi. Ular quyidagilar: i: ↔ i:, i ↔ i, ö ↔ o, ü ↔ u, a, ā ↔ ä (1, 37-b). Bundan faqat e unlisigina mustasno, uning jufti yo'q. Jumladan, oqışta bōlāmān, qolimnan kemādi . Mazkur misollarda orqa qator unlilar kelgan bo'lsa , māktpākā bār , iškā ke kabi misollarda esa old qator unlilar kelganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa singarmonizmning lingval va palatal , ya'ni tanglay singarmonizmi hisoblanadi. Qipchoq lahjasida labial singarmonizmdan ko'ra tanglay singarmonizmi ustundir.

So'ngso'z o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, yuqorida ko'rib o'tilgan mavzu qipchoq lahjasining bir bo'lakchasi edi, bilamizki , ushbu lahja o'zining rang-barangligi bilan boshqa lahjalardan ajralib turadi. Xamir uchidan patir deganlaridek biz ham ba'zi grammatik xususiyatini tahlil qildik, kelgusi ishlarimizda buni yanada kengaytirib tahlil qilib o'tamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. -Toshkent: 2021.
2. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. -Toshkent: O'qituvchi, 1996.
3. Reshetov V.V., SHoabdurahmonov SH. -Toshkent: O'qituvchi, 1978.